

**KONFERENSIYALAR.UZ**

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**V RESPUBLIKA ILMIY-  
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-  
FANI: INSON UCHUN  
INNOVATSION G'OYA  
VA YECHIMLAR**

**IYUL, 2025**

**ELEKTRON NASHR:**  
<https://konferensiylar.uz>



**KONFERENSIYALAR.UZ**

ANJUMANLAR PLATFORMASI

# **YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**

**V RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, iyul

**TOSHKENT-2025**

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.** V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-jild, 5-son (iyul, 2025-yil). – 107 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.uz>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 22-iyul

**Mas'ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

#### **Annotatsiya**

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lrim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rinni organ bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

**Barcha huqular himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

## MUNDARIJA

### FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

*Muxsinova Musallamxon*

TABIY FANLARDA HAYOTIY MUAMMOLAR YECHIMI  
(FIZIKA VA MATEMATIKA ASOSIDA) ..... 5-7

### TEXNIKA FANLARI

*Baxriddinov Nodirbek*

RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA INNOVATION FAOLIYATNI DAVLAT TOMONIDAN  
QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI: AQSH VA YEVROPA TAJRIBASI ..... 8-11

### TARIX FANLARI

*To'ychiyeva Dilnoza*

ZOMIN TUMANINING IQTISODIY TARIXI XUSUSIDA (2013-2024 YILLAR) ..... 12-19

*Horov Shukrat*

ISTORICHESKIJ ANALIZ FORMIROVANIE EKOLOGICHESKOJ KULTURY SREDI  
MOLODEZHI ..... 20-25

*Bazarbayeva Nilufar*

O'ZBEK MILLIY HUNARMANDCHILIGI TARIXI XUSUSIDA ..... 26-29

### IQTISODIYOT FANLARI

*Qo'chqarov Baxtiyor*

KICHIK BIZNES SUBYEKTALARIDA AYLANMA MABLAG'LARDAN FOYDALANISHNI  
TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY FAOLLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI ..... 30-34

*Kayyibekov Parahat*

COVERSHENSTVOWANIE UPRAVLENIA AUTOMOBILNYMI TRANSPORTNYMI  
USLUGAMI V UZBEKİSTANE ..... 35-41

*Ibragimov Jakhongir*

SANOAT KORXONALARIDA YASHIL INNOVATSİYALARINI JORİY QILISHGA EKSTERMAL IQLIM  
O'ZGARİSHLARI TA'SİRİNİ BAHOLASH ..... 42-45

### FALSAFA FANLARI

*Mamadiyarova Malika*

GLOBAL O'ZGARİSHLAR SHAROITIDA OILAVIY QADRIYATLAR TRASFORMATSIYASI ..... 46-48

*Ro'ziyev Maqsud*

ABULHASAN BAXMANYOR MA'NAVIY MEROSIDA TA'LIM VA TARBIYA MASALALARI ..... 49-52

### FILOLOGIYA FANLARI

*Tursinbaev Ilham*

BOLALAR POEMALARIGA OID TADQIQOTLAR TAHLILI ..... 53-57

*Pulatjonova Muxtasar*

HOW DO UZBEK LEARNERS USE DISCOURSE MARKERS IN ENGLISH SPEAKING: A LEARNER  
CORPUS ANALYSIS ..... 58-60

*Abdulxayeva Nodirabegim*

TRANSLATION OF REALIA IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION ..... 61-63

*Absalomova Feroza*

KOREYS TILI O'RGATISHDA O'QUVCHI MOTIVATSİYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR:  
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK VA MADANIY KONTEKST ..... 64-68

## **GEOGRAFIYA FANLARI**

*Nazirov Mirjalol*

FARG'ONA VILOYATIDAGI MIGRATSION JARAYONLARNING RETROSPEKTIV TAHLILI VA  
HUDUDIY DEMOGRAFIK JARAYONLARGA TA'SIRI ..... 69-71

## **YURIDIK FANLARI**

*Tog'onova Jemala*

MEDIATSIYADA ADVAKATNING RO'LI ..... 72-76

*Shomurodov Sanjar*

SUN'YI INTELLEKT MAHSULOTLARINI MUHOFAZA QILISHDA HUQUQIY MUVOFIQLIK  
MASALASIDA YAGONA XALQARO KONVENSIYA ZARURATI ..... 77-80

*Qilichev Nosirbek*

SPORT TAVAKKALCHILIGI – QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILUVCHI HOLAT  
SIFATIDA ..... 81-84

*Xolmo'minova Barchinoy*

DAVLAT PENSIYALARINING TURLARI VA ULARNI TAYINLASHNING O'ZIGA XOS  
XUSUSIYATLARI ..... 85-90

## **PEDAGOGIKA FANLARI**

*Таджibaева Альбина*

РЕФЛЕКСИВНАЯ ПРАКТИКА В ОБУЧЕНИИ: ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И СТРАТЕГИИ  
ФОРМИРОВАНИЯ ТРАСК ..... 91-96

*Собирова Гулибарно*

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ  
РУССКОГО ЯЗЫКА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ СРЕДЫ ..... 97-101

## **TIBBIYOT FANLARI**

*Numonjonov Asrorjon, Mansurova Nargiza*

ICHKI MUHIT REZONANSINING MIGREN TRIGGERLARIGA TA'SIRI: TIZIMLI VA ICHAK  
FAKTORLARINING INTEGRATSIYASI ..... 102-104

## **PSIXOLOGIYA FANLARI**

*Kurbanov Munis*

KASBIY IDENTIFIKATSIYA JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH ..... 105-107

## FILOLOGIYA FANLARI

### BOLALAR POEMALARIGA OID TADQIQOTLAR TAHLILI

**Tursinbaev Ilham Polatbay o'g'li**

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: [ilhamtursinbaev74@gmail.com](mailto:ilhamtursinbaev74@gmail.com)

Tel: +998997187328

Nukus, O'zbekiston

**Annotatsiya.** Maqlada o'zbek va qoraqalpoq adabiyotshunosligida bolalar adabiyoti, xususan, bolalar poemalari bo'yicha tadqiqotlarning yo'naliishlari, ahamiyati haqida qisqacha tahlil va sharhlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** bolalar poemalari, rivojlanish bosqichlari, bolalar adabiyoti.

### ANALYSIS OF RESEARCH ON CHILDREN'S POEMS

**Tursinbaev Ilkham Polatbay ugli**

independent researcher of the Berdakh Karakalpak State University

**Annotation.** The article provides a brief analysis and commentary on the directions and significance of research on children's literature, in particular, children's poems, in Uzbek and Karakalpak literary studies.

**Key words:** children's poems, stages of development, children's literature.

**DOI:** <https://doi.org/10.47390/Ydif-Res5/No-11>

Bolalar adabiyotida poema janrining paydo bo'lishi va rivojlanishi murakkab va uzoq davom etadi. Bolalar adabiyotida poemalar asosan milliy xususiyatlar bilan birga ko'pincha, o'zida ta'lif-tarbiyaviy mazmunni mujassamlashtiradi. Shuning uchun, bolalar adabiyotidagi poemalar haqida so'z ketganda eng avvalo bu janrning shu tomoniga e'tibor qaratish talab etiladi. Chunki bolalar adabiyotida poemalar bolalarning axloqiy va estetik rivojlanishini shakllantirishga qaratilgan. Ulardagi ijodiy g'oya va obrazlar o'quvchilarga ibrat bo'lishga, ularning dunyoqarashini kengaytirishga, umuminsoniy va milliy qadriyatlarning ahamiyatini anglashga qaratilgan. Shu bilan birga, poema janridagi asarlar ko'pincha, bolalarning ma'naviy jihatdan kamol topishini ta'minlash, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va aniq tasvirlar orqali tarbiya berishni maqsad qiladi.

O'zbek adabiyotshunosligi bolalar adabiyoti masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar bo'yicha turkiy xalqlar adabiyotshunosligiga nisbatan yetakchilik qilmoqda. Unda bolalar adabiyotiga bag'ishlangan o'quv qo'llanmalaridan tashqari, bir necha nazariy masalalar adabiyotshunoslik aspektidan ham, adabiyot bilan folklorning bog'liqligi aspektidan ham alohida e'tiborga olinib, keng tarzda o'rGANildi. Xususan, o'zbek bolalar adabiyoti bo'yicha darslik, o'quv qo'llanmalar, monografiyalar, ilmiy-publisistik asarlar chop etildi [1]. Bulardan tashqari o'zbek bolalar adabiyoti masalalari bo'yicha tadqiqotlarni bir necha yo'naliishlarda ajratib ko'rsatish mumkin. Qator olimlar o'zbek bolalar adabiyotidagi adabiy ertak janri, bolalar adabiyotida tanqidiy realizm, bolalar she'rlarida ma'naviy masalalar, bolalar she'riyatida humor-satirik obrazlar, bolalar adabiyotida humor, obrazlar haqida tadqiqotlar olib borgan bo'lsa [2], yana bir qator ishlarda bolalar yozuvchi-shoirlarining yakka ijodi, ularning mahorati [3], boshqalarida o'zbek bolalar adabiyoti xronologik jihatdan ma'lum bir

davrdagi rivojlanish tendensiyalari [4] keng tarzda o'rghanildi. Eng muhimi, bu tadqiqotlar orasida o'zbek bolalar adabiyotidagi poemalar ham alohida tadqiqot obyektiga olingan [5]. T.Abduqulovning "70 yillar bolalar poemalari va folklor" nomli filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi (Toshkent, 1977) 1970 yillar o'zbek bolalar adabiyotidagi poemalarning badiiy manbalari bo'lgan folklor asarlari bilan an'anaviy aloqalarini maxsus o'rghanishga, X.Egamovning "O'zbek bolalar poemalarining tili va uslubi" (Toshkent, 1974) nomli filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi bolalar poemalarining kattalar adabiyotidagi poemalardan asosiy xususiyatlarini belgilovchi til va uslubiy o'ziga xosliklarini tahlil qilishga, M.Jumaboevning "O'zbek bolalar poemalaridagi ijobjiy qahramon masalasi" nomli filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi (Toshkent, 1982) bolalar poemalaridagi qahramon obrazi va uning bolalar tarbiyasidagi ahamiyatini ko'rsatib berishga bag'ishlangan. Bu ishlar qoraqalpoq bolalar adabiyotidagi poemalarning o'ziga xos janr tabiatini, rivojlanish yo'nalishlarini o'rghanishda ma'lum darajada metodologik ahamiyatga ega bo'ldi.

Qoraqalpoq adabiyotshunosligida bolalar adabiyotini o'rghanish biroz kechikib qolgandek tuyuladi. Bolalarga mo'ljallangan asarlar qoraqalpoq yozma adabiyotida ham, xalq og'zaki adabiyotida ham juda ko'p. Ammo uning o'rganilishini kattalar adabiyotining o'rganilishi bilan taqqoslab bo'lmaydigan darajada past.

Qoraqalpoq bolalar poemalari ham kattalar poemalari qatorida yaratilib, taqdim etib kelinmoqda. Lekin, shu vaqtgacha bolalar poemalari bo'yicha birorta maxsus tadqiqot ishi olib borilmadi. Bolalar poemalari bolalar adabiyoti bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tarkibida umumiyo yo'nalishda sharh mazmunidagina ishlandi. Bu ishlar jumlasiga I.Qurbanbaev [6], T.Mambetniyazov [7], Z.Bekbergenova [8], S.Qazaqbaevlarni [9] ta'kidlash mumkin. Mazkur olimlarning ishlarida qoraqalpoq bolalar she'riyatida poemalarning janr xususiyati, poetikasi, badiiyati, uslubi bo'yicha maxsus o'rganilmagan.

Bu masalaga dastlabkilardan e'tibor qaratgan I.Qurbanboev "Qoraqalpoq bolalar adabiyotining paydo bo'lishi va rivojlanishi" degan mavzuda 1971 yili filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasini himoya qildi. Keyinchalik bu ishini takomillashtirib bir necha bor monografiya holida e'lon qildi. Olim bolalar adabiyotidagi poema janriga alohida to'xtamasa ham, poemalarning badiiy manbalari bo'lgan qoraqalpoq xalq eposlarining bolalar turmushida tutgan o'rniha alohida e'tibor qaratadi. Bu ish asosan xronologik usulda strukturalashtirilgan bo'lib, xalq og'zaki ijodidan boshlab 1990 yillargacha bo'lgan bolalar adabiyoti yozuvchi-shoirlarining ijodini tarixiy-adabiy kontekstda tizimlashtiradi. Monografiya o'quv qo'llanma tarzida tuzilgan. Shuning uchun, bu ishda yozma adabiyotdagi bolalar adabiyoti janrlari alohida maxsus o'rganilmasdan, yozuvchi-shoirlar ijodi misolida g'oyaviy-tematik xususiyati va qisqacha mazmunini aytib berish bilan cheklangan. Bu o'sha davrdagi siyosiy mafkuraning badiiy adabiyotni va adabiyotshunoslik ilmini siyosiy quroq sifatida foydalanishning ta'siridir. Biroq, bu tadqiqotda shoir-yozuvchilar ijodida poemalar qachondan yaratila boshlangani, ularning g'oyaviy-tematik yo'nalishi, obrazlari va bolalar tarbiyasidagi ahamiyati haqida qimmatli ilmiy ma'lumotlar olish mumkin [6].

Qoraqalpoq bolalar adabiyotida poema janriga ilmiy jamoatchilikning e'tiborini qaratgan olim T.Mambetniyazov bo'ldi. U o'zining "Qoraqalpoq bolalar poeziyasi va uning muammolari" (Nukus: Bilim, 1992) asarini to'lig'i bilan qoraqalpoq bolalar adabiyoti masalalariga bag'ishlaydi. Bir necha bolalar shoirlarining ijodiga e'tibor qaratadi, she'r va

poemalarini sharhlaydi, badiiy tahlil qiladi. Bu kitobdag'i "Bolalar poemalari" degan maqolasi (118-136-betlar) qoraqalpoq bolalar adabiyotida poema janrini alohida o'rganishga tortgan maqola bo'ldi. Ushbu maqolada muallif qoraqalpoq bolalar poemalarining shakllanishiga qisqacha sharh qilgan va bolalar poemalari bilan tanishtirib o'tgan.

1920-1930

yillardagi eng dastlabki poemalardan boshlab, 1980 yillargacha qoraqalpoq bolalar poemalari, ularning mavzulari, ayrim poemalarning qisqacha mazmunini aytib o'tish va shoirlarning poema yozishdagi mahorati masalasi bilan chegaralanadi, ammo, bolalar poemalaridagi obrazlar tizimi, poemalarning badiiyligi, janr xususiyatlari bo'yicha chuqur nazariy xulosalar bermaydi. Ish obzor xarakterga ega bo'lib, bolalar adabiyotida poemaning janr tabiatini to'liq ochib berilmagan. Olimning bundan boshqa asarlarida bolalar poemalari, bolalar shoirlarining ijodiga bag'ishlangan taqrizli maqolalarida mazmuni, go'ya-tematikasi, qahramon obrazlari doirasida tahlil qilingan [10].

Qoraqalpoq bolalar adabiyotini o'rganishda Z.Bekbergenova ham o'z tadqiqotlari bilan ishtirok etib kelmoqda. Uning "Bola tili bol..." (1997) va K.Palimbetov muallifligidagi "Bolalar adabiyoti" (2012) kasb-hunar kollejlari uchun darsligida qoraqalpoq bolalar adabiyoti vakillari ijodiga umumiyo yo'naliishda sharhlar qilinib, ayrim asarlar tahlilga tortiladi. Bularning ichida bolalar uchun poema yozgan shoirlarning ijodini tanishtirish jarayonida ayrim poemalarining g'oyaviy-tematik xususiyatlari va bolalar tarbiyasida tutgan o'rni, obrazlari haqida qimmatli fikrlar o'rinni oladi [8].

Xulosa qilib aytganda, bolalarga adabiyotida poema janri yuzasidan yetarlicha ijodiy tajribalar mavjud. Ayniqsa, mustaqillikdan keyingi davrda bolalar poemalari janriy jihatdan mukammallahashdi. Ammo, bolalar adabiyotidagi poemalarning tadqiq qilinishi yetarlicha emasligi yuqoridagi tahlillardan ma'lum bo'ldi.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Ўзбек болалар адабиёти тарихи очерки. – Тошкент: Фан, 1978. – 280 б.; Ўзбек болалар адабиёти ва адабий жараён. – Тошкент: Фан, 1989. – 312 б.; Болалар адабиёти ва замонавийлик. – Тошкент: Фан, 1991. – 212 б.; Болалар олами: Ўзбек болалар адабиёти ҳақида мақолалар тўплами. К. 1. – Тошкент: Ёш гвардия, 1988. – 112 б.; Болалар олами: Ўзбек болалар адабиёти ҳақида мақолалар тўплами. К. 2. – Тошкент: Ёш гвардия, 1989. – 96 б.; Қахрамонов Қ. Адабий танқид ва ўзбек болалар адабиёти. – Тошкент: Фан, 1991. – 120 б.; Эгамов Х. Дидактика ва услуб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1975. – 42 б.; Ўша муаллиф. Болалар дунёси. – Тошкент: Ёш гвардия, 1976. – 47 б.; Ирисхўжаева С. Болалар адабиётида дидактика. – Тошкент: Фан, 1977. – 48 б.; Ўша муаллиф: Шоир ва мураббий. – Тошкент: Ўзбекистон, 1977. – 31 б.; Ўша муаллиф: Кичкинтойлар олами. – Тошкент: Ёш гвардия, 1982. – 32 б.; Жумобоев М. Ўзбек ва чет эл болалар адабиёти. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – 232 б. Ўша муаллиф: Ўзбек болалар адабиёти. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – 242 б.
2. Алимов С. Ўзбек адабий эртакларининг шаклланиши ва тараққиёти: Филол. фан. номз..дисс. автореф. – Тошкент, 1984; Қахрамонов К. Роль литературной критики в развитии реалистических принципов в узбекской советской детской литературе: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1988. – 20 с.; Турдиева К. Ҳозирги замон болалар шеъриятида маънавият масаласи: Филол. фан. номз.... дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 26 б.; Иброҳимова З. Кичкинтойлар адабиётининг хусусиятлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 120 б.; Ўша муаллиф: Қувноқликка яширинган изтироблар. – Тошкент: Ўзбекистон миллий кутубхонаси, 2005. – 32 б.;

Жўраева Г. Ўзбек болалар шеъриятида ҳажвий образ яратиш маҳорати: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – 22 б.; Жураева Г.А. Ўзбек болалар шеъриятида ҳажвия (XX-XXI аср материаллари асосида): Филол. фанлари доктори (DSc)... дисс. Автореф. – Тошкент, 2022 – 52 б.; Ирисходжаева С. Специфические особенности узбекской детской поэзии: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1974. – 21 с.; Азимов И.У. Мастерство создания художественного образа в современной узбекской детской поэзии: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1986. –23 с.

3. Баракаев Р. XX аср бошларидағи ўзбек болалар адабиёти ва Абдулла Авлоний ижоди: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 32 б.; Нусратова Ҳ. Сафар Барноевнинг бадиий маҳорати: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD)... дисс. автореф.– Самарқанд, 2017.– 45 б.; Тўраева Д. Кудрат Ҳикматнинг бадиий маҳорати: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD)... дисс. автореф.– Тошкент, 2017.– 53 б; Сафаров А. Шукур Саъдулла – детский писатель: Автореф. дисс. канд. филол наук. – Самарқанд, 1971. – 19 с.; Ашуроев Б.Т. Адашбоев шеърлари поэтикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – 156 б.; Ашуроев Б. Турсунбой Адашбоев шеърияти поэтикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – 156 б.; Маматалимов З. Анвар Обиджон шеъриятининг бадиий-маърифий хусусиятлари: Филол. фан. бўй. фалс. док. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – 56 б; Баракаев Р. Абдулла Авлоний ва ўзбек болалар адабиёти. – Тошкент: Фан, 2004. – 158 б. Кўшjonov M. Қуддус Муҳаммадий. Қудрат Ҳикмат. – Тошкент, 1969. – 30 б.; Шарипов М. Шукур Саъдулла. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1971. – 96 б.; Кобулов Н. Кичкинтойларнинг катта шоири (Султон Жўра). – Тошкент: Ёш гвардия, 1973. – 71 б.; Шермуҳамедов П. Ижод дарди. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1973. – 163 б.; Ўша муаллиф: Она сутидек покиза. – Тошкент: Ёш гвардия, 1975. – 80 б.; Яна ўша. Истеъдод сехри. – Тошкент: Ёш гвардия, 1977. – 135 б.; Сафаров О. Болалик қуйчиси. – Тошкент: Фан, 1978. – 168 б.; И момов Б. Пўлат Мўмин. – Тошкент: Ёш гвардия, 1980. – 96 б.; Хўжаева Р. Қуддус Муҳаммадий. – Тошкент: Фан, 1980. – 56 б.; Матжонов С. Тириклик суви. – Тошкент: Ёш гвардия, 1986. – 176 б.; Ўша муаллиф: Китоб ўқиши биласизми? – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 144 б.
4. Ражабов Д. 80-йиллар ўзбек болалар шеъриятида поэтик маҳоратнинг айрим масалалари: Филол. фан. номз. ... дис. автореф. – Тошкент, 1995. – 29 б.; Жамилова Б. Ўзбек болалар публицистикаси ва унинг ривожланиш тамойиллари: Филол. фан. номз. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2004. – 23 б.; Тўхтаева Н. Истиқлол даври ўзбек болалар шеъриятининг етакчи хусусиятлари: Филол. фан. бўй. фалс. док. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 56 б.; Баракаев Р. Жонажоним, шеърият (80-йиллар ўзбек болалар шеърияти ҳақида баъзи қайдлар). – Тошкент: Чўлпон, 1997. – 88 б.
5. Абдукулов Т. 70-йиллар болалар поэмалари ва фольклор: Филол. фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент, 1977; Эгамов X. Язык и стиль узбекских детских поэм: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1974. – 25 с.; Жумабаев М. Проблема положительного героя в узбекских детских поэмах: Автореф. дисс. канд. филол наук. – Ташкент, 1982. – 22 с.
6. Курбанбаев И. Қарақалпақ балалар әдебияты тарийхының очерки. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1974; Курбанбаев И. Қарақалпақ балалар әдебияты. – Нөкис. Билим, 1992.
7. Мәмбетниязов Т. Қарақалпақ балалар поэзиясы ҳәм оның машқалалары. – Нөкис: Билим, 1992. – 164 б.; Усы автор. Шайыр жолы (С.Аббазовтың өмири ҳәм дөретиўшилик жолы туўралы). – Нөкис: Билим, 2001.

8. Бекбергенова З. Бала тили пал... Нөкис: Қарақалпақстан, 1997; Palii'mbetov K., Bekbergenova Z. Balalar a'debiyati'. – No'kis: Bilim, 2012.
9. Qazaqbaev S. XX ásirdiń aqırı XXI ásirdiń basındaǵı qaraqalpaq balalar ádebiyatınıń evolyuciyası, janrlıq qásiyetleri hám poetikası. – Nókis: Bilim, 2016.
10. Мәмбетниязов Т. Жаңа қарақалпақ поэзиясы ҳәм дәўир талабы. – Нөкис: Билим, 1994.

# **YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**

**V RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, 22-iyul

**Mas'ul muharrir:**

*F.T.Isanova*

**Texnik muharrir:**

*N.Bahodirova*

**Diszayner:**

*I.Abdihakimov*

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.** V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.

1-jild, 5-son (iyul, 2025-yil). – 107 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**Elektron nashr:** <https://konferensiylar.uz>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 22-iyul

**Barcha huqular himoyalangan.**

© Science problems team, 2025-yil.

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.